

“Kapitalbank” aksiyadorlik tijorat banki bank aksiyadorlarining navbatsiz umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qiladi

Hurmatli aksiyadorlar!

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatsiz umumiy yig‘ilishi **2018 yilning 21 dekabr** kuni quyidagi manzil bo‘yicha o‘tkaziladi: Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 7-uy, “Kapitalbank” ATB Bosh ofisi binosi.

e-mail: info@kapitalbank.uz

vab-sayt: www.kapitalbank.uz

Ro‘yxatdan o‘tkazish soat **10.30** da boshlanadi.

Bank aksiyadorlarining navbatsiz umumiy yig‘ilishini o‘tkazish soat **11.00** da boshlanadi.

Aksiyadorlarning navbatsiz umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega bank aksiyadorlari reyestrini tuzish sanasi – **2018 yil 17 dekabr**.

Kun tartibi:

1. “Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatsiz umumiy yig‘ilishini o‘tkazish reglamentini tasdiqlash haqida.

2. “Kapitalbank” ATB ustav kapitalini avvalgi yillarda taqsimlanmagan foydani kapitallashtirish hisobiga miqdori 10 117 900 donani, umumiy nominal qiymati 9 612 005 000 so‘mni tashkil etgan egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiyalarni qo‘shimcha ravishda chiqarish orqali ko‘paytirish haqida.

3. Miqdori 10 117 900 donani, umumiy nominal qiymati 9 612 005 000 so‘mni tashkil etgan egasining nomi yozilgan oddiy hujjatsiz aksiyalarni qo‘shimcha ravishda chiqarish to‘g‘risidagi Qarorni tasdiqlash haqida.

4. Kutilmagan holatlar hisobvaraqlarida hisobga olingan ishonchsiz aktivlarni va boshqa qarzdorlikni hisobdan chiqarish bo‘yicha qarorni tasdiqlash haqida.

“Kapitalbank” ATB aksiyadorlarining navbatsiz umumiy yig‘ilishiga tayyorlangan materiallar bilan quyidagi manzil bo‘yicha tanishib chiqish mumkin: Toshkent shahri, Sayilgoh ko‘chasi, 7-uy, “Kapitalbank” ATB Bosh ofisi binosi, 3-qavat, 36-xona.

Izoh: Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning navbatsiz umumiy yig‘ilishida vakil to‘g‘risidagi ma’lumotlar (ismi yoki nomi, yashash yoki joylashgan joyi, pasport ma’lumotlari) keltirilgan, yozma ravishda tuzilgan ishonchnoma asosida ishtirok etadi. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo‘lishi lozim. Yuridik shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma qonunchilikda belgilangan tartibda beriladi.